

Ona yurti - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALATASI
INV. N

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.


Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2005-yil 31 oktabr - 6-noyabr N:44 (66533)

USTOZGA SO'Z

BOBOLARIM O'QIQAN GAZETASI

Hunarni asrabon netgumdir oxir,
Olib tufroqqami ketgumdir oxir,-




deb bundan besh asrdan
mo'lroq avval Navoiy bobomiz
topib aytib ketgan. "Hunar -
hunardan unar" deb farzandlariga
saboq bergan xalqimiz
hunarmandlarga katta e'tibor va
hurmat bilan qaragan. Vatanimiz
ravnaqi uchun yaxshi ustalar,
iqtidorli yaratuvchilar kerak ekan,
maktablarimizda bu masalaga
jiddiy e'tibor berib kelinmoqda.

Men ishlaydigan Chinoz shahridagi 40-o'rta maktabda o'ndan
ortiq to'garaklar ish olib bormoqda. Bizning "Tasvir"
to'garagimizga yon-atrofdagi 1-,2-,26-sonli maktablardan ham
o'quvchilar qatnashmoqdalar. To'garak a'zolari bilan tuman,
viloyat va Respublikamiz miqyosidagi har xil tadbirlarda faol
ishtirok etgan o'quvchilar atrofimizda va jamiyatimizda
bo'layotgan voqea va hodisalarga befarq emas. Ular chizgan
suratlar, jumladan, "Rangin olam", "Inson va tabiat", "Og'usiz
dunyo sari", "Vatan posbonlari", "Narkomafiya to'siqlari",
"Vatan sarhadlari" kabi viloyat va Respublika ko'rik-tanlovlarida
yuqori baholandi. Hozirgi kunda o'quvchilarim Toshkent
shahridagi Nafis san'at litseyida, Respublika Badiiy rassomchilik
bilim yurtida, Toshkent Davlat Pedagogika Universitetida va
boshqa o'quv yurtlarida o'qishmoqda. Shu o'rinda "Tong
yulduzi" gazetasining o'quvchilarimizga berayotgan ma'naviy
«dunyo»sini alohida ta'kidlab o'tishim kerak. To'garagimizdagi
45 nafar o'quvchilarning hammasi "Tong yulduzi" gazetasini
sevib o'qishadi. Uning sahifalarida yoritilayotgan mavzular
dolzarb va qiziqarliligi bilan judayam bizga yoqadi. Shuning
uchun ham shogirdlarimning hammasi birinchilardan bo'lib
"Tong yulduzi" gazetasiga obuna bo'ldilar. O'z ijodlari bilan
yangi yilda gazetamiz sahifalarini boyitadilar deb umid qilaman.
Buning uchun gazetada e'lon qilinayotgan «Bizning to'garak»
sahifasidan o'rin olgan tengdoshlari chizgan suratlar ham ularga
ilhom bag'ishlaydi. Doimiy ilhomchimiz bolajon gazeta "Tong
yulduzi"ning umri uzoqligiga ishonaman. Bobolarim o'qigan
gazetani bugungi bolalarning bolalari ham o'qishadi.

Toyirxon MANSUROV,

Chinoz tumanidagi 40-o'rta maktab o'qituvchisi,
«Mehnat shuhrati» ordeni sohibi.



Kuz fasli qizlarning kulgusiday sho'x,
Bog'lar "libosim" deb chekmoqda anduh.
Daraxtning barglari shamolga ermak,
Yurtimda kuz fasli, mehmondir demak!

SAHIFALARDA

IQTISODNI
BILMASLAR - BOY-
BADAVLAT
BO'LMASLAR



4-5-BETDA

Anvar SANAYEV:
MUSHTLASHISHDA
TO'RTINCHI
O'RIN



8-BETDA

Salomatlik bekati

Dardning katta-kichigi, yaxshi-yomoni bo'lmaydi. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'z nomi bilan "dard". Insonga azob beradi. Uning joni azoblanmasligi uchun esa dardni davolash, yana ham to'g'rirog'i, uning oldini olish lozim.

Lekin hammamiz ham bu qoidaga amal qilavermaymiz. Biror yerimiz og'risa, o'tib ketar, deya parvo qilmaymiz. Kasallik obdon zo'rayib ketgandan keyingina shifokor huzuriga oshiqamiz. Afsuski, ko'p hollarda kechikib qolamiz...

Aziz bolajonlar, gazetamizni diqqat bilan kuzatib borayotgan bo'lsangiz, ko'plab shifokorlar bilan turli xastaliklar xususida suhbatlar uyushtirib boryapmiz. Ularning maslahat va o'gitlari sizni yoshlikdanoq salomatlikning qadriga yetishga o'rgatadi, degan umiddamiz.

Bugungi suhbatdoshimiz Andijon Davlat Tibbiyot instituti bolalar kasalliklari va neonatologiya kafedrasi dotsenti Manzura opa MADAMINOVA bo'ladi. Shifokor opangiz sizga Gelmintos kasalligi, ya'ni, bolalar organizmida gijjalarning parazit holda yashashi haqida so'zlab beradilar...

KICHKINA DEMANG BIZNI...

Inson organizmida parazit holda hayot kechiradigan gijjalar yashab ko'payibgina qolmay, o'zidan zaharli moddalar ham chiqaradi. Ularning hayoti faoliyatidan paydo bo'lgan bu chiqindilar bolaning asab sistemasiga, jigar faoliyatiga, terisiga, ichki bez va yurak qon-tomir sistemasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zbekiston hududida gijjalarning enterobioz, lyambleoz kabi turlari ko'plab uchraydi. Gijjalar tez yuqadi va u yuqqan bolalarning nerv sistemasini lobill holatda bo'ladi, ya'ni, kayfiyatining o'zgaruvchanligi, uyquda bezovta bo'lishi, tezda

USTOZ

Qalbi osmon kabi keng,
Mehri ummonlarga teng.
Biz-chun eng aziz inson,
Ustozimiz begumon.
Bilim beradi jo'shib,
Unga bor mehrin qo'shib.
O'g'il-qizidek go'yo,
Bizga ulashar ziyo.
So'zlaringiz purma'no,
Sizsiz olim va dono.
Sizni alqar bu dilim,
Sizga ta'zim, muallim!

charchab qolishi, yaqinlari bilan ko'p urishishi kuzatiladi. Bunday bolalar qishin-yozin ustini yopmay yotadi, uyquda tishini g'ichirlatadi, og'zidan so'lagi oqadi. Kindigi atrofi tez-tez og'rib turadi, ishtahasi yo'qoladi. Tanasida oq dog'chalar paydo bo'ladi. Bu o'zgarishlar poligipoavitaminoz, ya'ni, organizmida barcha vitaminlarning kamayib ketganligini bildiradi. Bu kasallik o'z vaqtida davolanmasa, asoratlari og'ir kechadi. Kamqonlik, tez-tez burun qonashi, vetiligo, ya'ni, xalq tilida aytadigan bo'lsak, inson tanasining oqarib ketishi kuzatiladi.

Xo'sh, bu kasallik qanday paydo

bo'ladi, degan o'rinli savol tug'iladi.

Avvalambor, shaxsiy gigiyenaga amal qilmaslik, shuningdek, ko'cha-kuyda antisanitar holatda saqlanadigan va sotiladigan qurt, pista, rezinkali saqich, bodroq kabi mahsulotlarni iste'mol qilish oqibatida kelib chiqadi. Qolaversa, maktab va bog'chalar atrofida uyulib yotadigan axlatxonalaridan ko'tarilgan chang orqali bu kasallik "bolalab" ketadi.

Gijja yuqmasligi uchun bolalar tirnoqlarini olib yurishlari, ovqatdan oldin qo'llarini albatta sovunlab yuvishlari, ovqatni vilka yoki qoshiqda yeyishlari kerak bo'ladi. Ayrim bolalar chaynayotgan saqichlarini biror yerga yopishtirib qo'yadilar-da, keyin yana chaynayveradilar. Bunday qilish aslo mumkin emas. Chunki chaynalgan saqichga chang o'tirib qoladi.

Shu o'rinda, qadrli ota-onalarimizga murojaat qilmoqchiydim: farzandingizda yuqorida aytib o'tilgan klinik belgilarni sezsangiz, darhol gelmintologga, ya'ni,

gijjalar bilan shug'ullanuvchi shifokorga murojaat qiling. Gijjalarning tez yuqishini inobatga olgan holda barcha oila a'zolari tekshiruvdan o'tib, teng davolanishlari lozim. Gijjalarning turlariga qarab davo moddalari va usullari ham turlicha bo'ladi. Hozirgi kunda gijjalar ularga qarshi

ANDIJON

Ilg'or paxtakorim - Andijon,
Sensan iftixorim, Andijon.
Mol-davlatni o'ylamam aslo,
Sensan mening borim, Andijon.
Oq oltining chamandir-chaman,
Zavqim kelib uni quchaman.
Quvvatlasang shoira qizing,
She'riyat osmoniga uchaman.
Senga yetmay Mirzo Bobur ham,
O'zga yurtida chekkanlar alam.
«Ona yurtim - Andijon» - deya,
Sen haqingda tebratgan qalam.
Andijonim, go'zal Andijon,
Sensan menga eng ulug' makon.
Andijonim, go'zal Andijon,
Senga fido erur tan va jon.

Komila KARIMOVA,
Andijon viloyati, Izboskan
tumanidagi 39 - ixtisoslashgan
maktab-internatning 11 - sinf
o'quvchisi.

qo'llaniladigan ko'plab dorivor moddalarga moslashib ketishgan. Shuning uchun davolanish ancha cho'zilishi mumkin. Respublikamiz olimlari yangi-yangi dori vositalari kashf etish borasida samarali izlanishlar olib borishyapti. Jumladan, bizning institutimizda yangi gemolin dorisi ishlab chiqildi va u Farg'ona vodiysida samarali qo'llanilyapti. Farmokologik qo'mita tasdig'idan o'tgan bu dori organizmning qurtga qarshi kurashuvchanligini oshirish bilan birga uni gijjalardan tozalaydi.

Gijjalar bu bir bolaning yoki oilaning muammosi emas, u jamiyatniki hamdir. Hammamiz birgalikda ekologiyamiz sofliqi uchun kurashishimiz, maktab va bog'chalar, turar joylar atrofida axlatlarning uyulishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim. Bolalar muassasalari atrofida "uya qurib" oladigan pistafurushlar faoliyati sanitariya-epidemiologiya bo'limlari nazoratida bo'lishi kerak. Ota-onalarimiz, maktab va bog'chalarga taklif qilingan mutaxassislar beozorgina ko'ringan kichkina gijjalarning inson salomatligiga zarari juda katta ekanligini bolajonlarga sodda va ravon qilib tushuntirib borsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Zero, kasallikni davolagandan ko'ra, uni oldini olgan ma'qul, degan naql bejiz aytilmagan.

Oyimning aytishlaricha, yoshligimda juda nimjon bola bo'lgan ekanman. Tez-tez shamollab qolaverganimdan bog'chaga ham yubormay qo'yibdilar. Ishdan bo'shab, o'zlari parvarishlabdilar. Shunday bo'lsa-da, kunlar biroz sovidi deguncha, goh tomog'im qizarib ketar, goh burnim oqib qolaverarkan. Maktabning quyi sinflarida o'qib yurgan kezlirimda ham shu hol takrorlanaverdi. Oyijonimning meni yetaklab olib bormagan shifokorlari qolmabdi hisob.

Shunda bir shifokor, o'g'lingiz sport bilan shug'ullansin, barvaqt turib, toza yugursin, o'pkasini nafas olsin, deya maslahat beribdi. O'zingizdan qolar gap yo'q, tonggi shirin uyqudan kechishning o'zi bo'lmaydi. Bu ham kamlik qilgandek, uyqusirab turganda yugurishni ayting... Lekin oyim meni chiniqtirishga astoydil kirishganlar chog'i, ne mashaqqatlar bilan turli va'dalar evaziga bir amallab uyg'otardilar. Muzdek suvga yuvintirib, uyqumni qochirardilar. Menga

hamroh bo'lib
holga


"BO'YIM HAM O'SIB QOLDI"



o'zlari ham yugurardilar. Keyin-keyin bu ko'nikib ketdim. Har kuni bir xil paytda ko'zlarim o'z-o'zidan ochilib, uyqum qochadi. Yugurib kelganimdan keyin esa ishtaham karnay bo'lib ketadi.


Avvallari maktabda tez charchab qolardim. Ayrim bo'shroq o'qituvchilarimizning darslarini orqa partalarga o'tirib, uyqu bilan o'tkazardim. Maktabdan kelib biroz uxlab olmasam, kechga borib charchab qolardim va soat 8 bo'lmay uxlab qolardim. Hozir esa butunlay aksi: o'zimni juda yengil his qilaman. Yuragim toshib, bir yerda o'tirgim kelmaydi. Kechalari ham soat 11-12 larda ko'zimga bazo'r uyqu keladi. Do'stlarim orasida bo'yimning pastligidan uyalib yurardim. Hozir jismoniy tarbiya darsida safda ikkinchi o'rinda turaman. Bularning bari uchun eng avvalo mehribon oyijonimdan, qolaversa, sportdan behad minnatdorman.

Shokir NORQULOV,
Toshkent viloyati, Angren shahri.



Giyohvandlik... Bu so'zni eshitgan zahotingiz shirakayf yoki qiynog'u azoblardan bukilib, dard chekayotgan odam ko'z oldingizga keladi, shunday emasmi? Hozirgi kunda butun jahon diqqatini o'ziga jalb etayotgan bu illatdan qutulish yoki uning oldini olish uchun hamma barobar bel bog'lagan. Lekin, afsuski ba'zi yoshlarni bu yo'ldan qaytarish amri mahol bo'layapti. Nafaqat o'z hayotini, balki yaqinlarinikini ham zaharlayotgan inson ertaga uni nimalar kutayotganini bilmaymikin?! O'zingina giyohvandlik moddasi topish uchun yillab yiqqan mol-mulkini sovurayotgan yoki birovning mulkini o'g'irlayotgan odamlar oramizda kammi? Ularning bu yo'llarga kirib qolishiga kim sababchi, degan haqli savol tug'iladi. Albatta o'zi-da, deyish

Sog' yurak - tog' yurak



giyohvandlikka qarshimiz" deb nomlangan bo'lib, maktab o'quvchilari, voyaga yetmaganlar orasida OITS va

giyohvandlik, toksikomaniya kabi illatlarning zararligini, bu yo'lga kirganlarning oxir-oqibat qay ko'yga tushib qolishlari haqida qiziqarli suhbatlar olib borildi. Shuningdek, o'quvchilarning plakatlarga

mumkin, ammo uning atrofidagi mahalladoshlari, oshna-og'aynilari yoxud otanasi nega uni vaqtida tergamadilar? Bu yo'lga bilib-bilmay kirib qolgan o'smirlarga nima uchun vaqtida bu zahri qotil haqida ma'lumotlar berilmadi? Yoshlarni bu yo'ldan qaytarish, ularga sog'lom kelajak yaratib berish biz kattalarning qo'lida-ku, axir! Buni yaxshi bilgan

Mirzo Ulug'bek tumanidagi Xalq ta'limi bo'limi xodimlari, «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati, madaniyat va sport bo'limi, mahalla, xotin-qizlar, oila va ma'naviyat markazi bilan birgalikda tumanda joylashgan barcha maktablar orasida tanlov o'tkazishdi. Bu tanlov "Biz OITS va

ishlagan rasmlari tanlovi ham bo'lib o'tdi. Rasmlar orasidan 171-maktab o'quvchisi Yevgeniy Viktor va Natasha Pavlovaning chizgan rasmlari Oliy o'ringa loyiq deb topildi. Giyohvandlikka qarshi mavzular bo'yicha 142-, 210- va 148-maktab o'quvchilarining yozgan insholari birinchi o'rinni egallagan bo'lsa,

"XASTAMEN" DEB BO'ZLAR BIR DARDMAN INSON

Yuragimni g'ajir dard bo'rilari, Izimdan ergashar soyadek shayton. Ongimni zaharlar zamin yovlari, Meni ta'qib etar bu hislar hamon.


Qalbim farishtasi, qaylarda qolding, Mendan qochib ayting, sen qayga ketding? Vujudim og'riqdan hali ham titrar, Ketding-u, ko'p dardga giriftor etding.

gapirib, g'olib o'quvchilarni tabrikladilar va «Faxriy yorliq»lar bilan taqdirladilar. Giyohvandlikka ruju qo'yib, bu yo'lga kirib qolayotganlarning aksariyatini yoshlar tashkil qilayapti. Ammo biz asr vabosi

Xastamen, uzilgum bargi xazonday, Qish ko'rpasi ostida chirigum albat. Xastamen, shum nafsga yaxshi qurolday, O'z tig'im boshimga yetadi albat...

Vijdon qafasida zanjirbandman men, Nochorman, yordamga muhtojman hamon. Do'stlarim, iltimos, ozod bo'lay men, Yo Rabbim, yetakla yorug'lik tomon...

Munisabonu XOLIQOVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumani.



Qo'chqorov, madaniyat va sport bo'limi raisi Anvar Nabiyeov so'zga chiqib, o'quvchilarning kelgusi ishlarida muvaffaqiyatlar tiladilar va g'oliblarga qimmat baholalar topshirdilar. O'quvchilar ijodiyoti markazining bo'lim boshlig'i Muyassar opa Nasriddinova bu tadbirning naqadar dolzarbligi, giyohvandlikning asoratlari-yu oqibatlarini haqida o'quvchilarga

bo'lgan giyohvandlikka qarshi kurashni davom ettiramiz. Uning inson organizmiga qanchalar zarar ekanligini har bir o'smirlarga o'rgatib, uni bu yo'lga kirib qolishdan asraymiz. Keling, aziz o'quvchilar, siz ham davramizga qo'shiling! Toki, oramizda bu baloga chalingan birorta ham yosh bo'lmasin.

Shirmonoy ASRANOVA,
Mirzo Ulug'bek tumani
ma'naviyat va ma'rifat bo'limi
uslubchisi.
O.TURSUNBOYEVA.

BIZ OITSGA QARSHIMIZ!

Kuni kecha tumanimizda Toshkent shahri, Yunusobod tumani Xalq ta'limi vazirligi tomonidan "Biz OITSGa qarshimiz" deb nomlangan tanlov-aksiyasi o'tkazildi.

Uni o'tkazishdan maqsad, yoshlar orasida OITS va giyohvandlik illatlarining zararli oqibatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish, millat kelajagiga, salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bu mudhish kasalliklarga qarshi keng jamoatchilik kurashini tashkil etish edi. Shuningdek, tadbir ishtirokchilariga "YUNISEF" tashkilotiga birlashtirilgan maktab o'quvchilari tomonidan OITSning nimaligi, uning kelib chiqish tarixi hamda oqibatlari haqida batafsil ma'lumot berib o'tildi. Ular OITS va giyohvandlik

oqibatlari mavzulari kichik sahna ko'rinishi ham qo'yib berdilar.

Tanlov-aksiya yakunida tuman Xalq ta'limi bo'limining ishchi guruhi tomonidan rasm va plakatlari, insho va risolalar ko'rib chiqildi. Ushbu guruh a'zosi G.Rasulovning

ma'ruzasini tinglab, OITS va giyohvandlik bugungi kunda ko'proq biz yoshlar orasida tarqalayotganini, bu kasalliklarni davolab bo'lmavligini bilib oldik.

Menimcha, bu aksiyada bevosita ishtirok etgan barcha o'quvchilar o'zlariga kerakli xulosalarni chiqarib oldilar.

*Aroq bilan do'st bo'lmang,
Ajaldan burun o'lmang...
So'zim chiqar bo'lib o'q,
Deymiz biz: "To'rt karra yo'q!"*

*Tamaki bu zararli -
O'pka bo'lar zaharli.
So'zim chiqar bo'lib o'q,
Deymiz biz: "To'rt karra yo'q!"*

*Giyohvandlik vabosi,
Yo'qdir uning davosi.
So'zim chiqar bo'lib o'q,
Deymiz biz: "To'rt karra yo'q!"*

Umida QOSIMOVA,
Yunusobod tumanidagi 97-maktab
o'quvchisi.



TADBIR TUGAGANI YO'Q...

Sentabr oyining oxirlarida maktabimizda boshlangan "OITS va giyohvandlikka qarshimiz", "O'zingni giyohvandlikdan saqla", "OITS - jamiyatimizga tahdiddir" kabi mavzulardagi tanlovlari hali ham davom etyapti. Yuqori sinflarda o'qiydigan aka va opalarimiz bu tanlovlarda faol ishtirok etib, mavzuga oid rasmlar chizishyapti, devoriy gazeta chiqarib, insho va she'rlar yozishyapti.

Yaqinda IIV boshqarmasi xodimi Usmonov, «Sakkokiy» noziri Erkin aka hamda maktabimiz opa Fatxullayeva oid tadbir bo'lib etgan yuqori sinf chehrasidan, o'zaro munozaralaridan o'tgani ko'rinish



Yusuf aka mahallasi Butunboyev shifokori Nasiba ishtirokida mavzuga o'tdi. Unda ishtirok o'quvchilarining olib borayotgan bahs va tadbirning juda qiziqarli turardi.

Munisa KOMILOVA,
Uchtepa tumanidagi 24-maktabning 5-"A" sinf
o'quvchisi.

IQTISODNI BILMASLAR - BOY-BADAULAT BO'LMASLAR!

Sadoqat TO'LANOVA, Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanidagi 30-ixtisoslashgan litsey-internatining 11-sinf o'quvchisi:

- «Tong yulduzi» mening eng sevimli gazetamdir. Turli mavzulardan iborat muntazam ravishda o'qib boraman. Ayniqsa, kitobcha holida birgina meni emas, balki tengdoshlarimning boyitib turibdi. Ta'lim dargohimizning yulduzi» gazetasiga birinchilardan Litsey-internatimiz iqtisodiyot faniga Ustozlarimizning barcha saboqlarini tinglaymiz. Ushbu ta'lim maskanida yo'l ko'rsatgan desam aslo mubolag'a saboqlari» tanlovining ilk savollarini o'qdim-u, tanlovga qiziqib qoldim. Uning har bir o'quvchi albatta iqtisoddan kuchli bilimga ega bo'lishi lozim. Ana shu orzum tufayli o'qishimni litsey-internatda davom ettirayapman. Iqtisodga qattiq bog'lanib qoldim. Tuman, viloyat bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritdim. Ushbu tanlovning Respublika bosqichiga kelib, Ergashvoy Sarioqov, Umida Abdurazimovani suhbatidan bahramand bo'ldim. Bir olam taassurotlar bilan ona qishlog'imga qaytar ekanman, sevimli gazetam «Tong yulduzi», senga ming-ming rahmatlar aytaman.

DIQQAT, DIQQAT!!!

Kelgusi sondan boshlab «Iqtisodiyotdan saboqlar» tanlovining yangi shartlarini e'lon qila boshlaymiz. Iqtisodiyotga qiziqqan, qimmatbaho sovg'alarga ega bo'lishni istaganlar «Tong yulduzi» gazetasiga yozilishga shoshilishsin! Chunki javoblar «Tong yulduzi» gazetasi sahifalariga yozib jo'natiladi.

Muhayyo HUSANOVA, Navoiy shahridagi Industrial iqtisodiyot kollejining 1-kurs talabasi:

- Tanlov shartlari bilan «Tong yulduzi» gazetasi orqali tanishib bordim. 2003 - yildan buyon ushbu tanlovga muntazam qatnashib kelayapman. Shu bois bo'lsa kerak, hamisha izlanib, o'z ustimda tinmay ishlashga o'rganib qoldim. Vaqtimni biron daqiqasini ham behuda sarflagim kelmaydi. Iqtisod faniga juda qiziqaman.

Umida ESHONQULOVA:

- Bizning Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahrida joylashgan 39-o'rta maktabimizda barcha fanlar qatori iqtisod, huquq, tarix kabi fanlar yaxshi o'qitiladi. Ayniqsa, ustozimiz Gulnora Nurullayevaning jonkuyarligi sabab sinfimizdagi barcha o'quvchilar, jumladan, men ham iqtisod fanini chuqur o'rganamiz. Hozirgi kunda Aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi 2-Toshkent yuridik kollejida tahsil olayapman. Bunda albatta mehribon ustozlarimning hissi beqiyosdir. Iqtisodni o'rganish davomida O'zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, iqtisodiy islohotlariga emas, balki butun dunyo davlatlarini iqtisodiy o'zgarishlarini o'rganayapman. Bu boradagi bilimlarimni mustahkamlashimda sevimli gazetam «Tong yulduzi»ning ham hisssasi bor. Uning har bir sonini qo'lmdan qo'ymay mutolaa qilaman. Ukajonlarim, singiljonlarimga ham ushbu gazetani albatta o'qib boring, deymen.

Komil RAHMONOV, Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 20-ixtisoslashtirilgan iqtidorli bolalar maktab-internatining 11-sinf o'quvchisi:

- Men «Tong yulduzi» gazetasi orqali erkin fikrlashga, iqtisodiy mulohaza yuritishga, o'z haq-huquqimni bilishga va eng qiziqqan tanlovim «Iqtisodiyot saboqlari» tanlovida ishtirok etish sharafiga miyassar bo'ldim.

Sinfimizdagi ko'pchilik do'stlarim sen tufayli o'z bilimlarini boyitib bormoqda. Diyorimizdagi barcha tengdoshlarimga albatta «Tong yulduzi»ni o'qing, deymen. So'z boyligingiz ortib, nutqingiz ravon bo'ladi.

IQTISODIYOT SABOQLARI TANLOVI OLIMPIADAGA AYLANDI

Aziz bolajonlar! Sevimli gazetangiz orqali berib borilayotgan «Iqtisodiyot saboqlari» tanlovi mana sakkiz yildirki, sizlarning bilimingizni sinab, eng zukklaringizni g'oliblik shohsupasiga chiqarib kelmoqda. Tanlovning ilk qatnashchilari shu kunlarda mustaqilligimizni mustahkamlashda faol ishtirok etayotgan bo'lishsa, ko'pchiligi oliygo'hlarda o'qib, yangi manzillar sari qanotlagan qo'lda. Sakkiz yil... Bu davr mobaynida qancha chashmalar ko'z ochdi, qanchalari o'z-o'zidan to'xtab qoldi. Lekin saxovatti olim Ergashvoy Sarioqovning «Tong yulduzi» gazetasi bilan boshlagan xayrli ishi ko'lami kengayib bordi. Muassis-mutasaddilar safi ortdi, shart va topshiriqlarining mazmun-mundariyasi yanada puxtalashdi. Yaqinda poytaxtimizga tanlovning yakuniy bosqichida qatnashish uchun gazetamizda e'lon qilingan g'oliblar tashrif buyurishdi. Ular olim-u mutasaddilarning yana bir jiddiy sinovidan o'tib, o'z sovg'a va sovrinlarini qo'lga kiritdilar.

QUYIDA G'OLIBLAR RO'YHATINI E'TIBORINGIZGA HAVOLA QILAMIZ:

- 1-o'rin. Iroda QAMBAROVA - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30-litsey-internat.
- 2-o'rin. Eldor UMAROV - Samarqand viloyati, Paxtachi tumani, 15-maktab.
- 3-o'rin. Feruz JO'RAYEV - Buxoro viloyati, Jondor tumani, 20-maktab-internat.

QOLGAN O'RINLAR QUYIDAGICHA TAQSIMLANDI:

4. Ayjan Chirmashova - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30-litsey-internat.
5. Umida Eshonqulova - Qashqadaryo viloyati, Qarshi sh., 39-maktab.
6. Saodat To'lanova - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30-litsey-internat.
7. Bekpo'lat Sadirov - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30-litsey-internat.
8. Qosimbek Xaydaraliyev - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30-litsey-internat.
9. Feruza Aliboyeva - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30-litsey-internat.
10. Komil Rahmatov - Buxoro viloyati, Jondor tumani, 20-maktab-internat.
11. Gulzina Yuldasheva - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30-litsey-internat.
12. Muslimbek Davlatov - Andijon viloyati, Qorasuv shahar, 19-maktab internat.
13. Muhayyo Xasanova - Samarqand viloyati, Paxtachi tumani, 15-maktab.
14. Davron Jumayev - Samarqand viloyati, Paxtachi tumani, 15-maktab.
15. Otobek Qurbonov - Buxoro viloyati, Jondor tumani, 20-maktab-internat.
16. Alima Qambarova - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30-litsey-internat.
17. Gulzara Gapparova - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30-litsey-internat.
18. Mohira Nuriddinova - Toshkent sh., Sobir Rahimov tumani, 310-ixtisoslashgan maktab.
19. Davron Musayev - Toshkent sh., Sobir Rahimov tumani, 310-ixtisoslashgan maktab.
20. Rustam G'ulomov - Toshkent sh., Sobir Rahimov tumani, 310-ixtisoslashgan maktab.
21. Azizbek Temirov - Toshkent sh., Sobir Rahimov tumani, 310-ixtisoslashgan maktab.




Maftuna SALIMOVA, Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 15-o'rta maktabning 10-sinf o'quvchisi:

- Ota-onam ziyoli kishilar. Ularning o'z kasblarini qadrlashlarini ko'rib havasim keladi. Kelajakda xuddi ular singari o'qimishli bo'lishni istayman. Buning uchun tinmay izlanib, ter to'kishim lozim. Sevimli gazetam «Tong yulduzi» sabab iqtisod tanlovlarida qatnashib kelayapman. Shartlarning murakkabligi, mazmundorligi bois qiziqishim kun sayin ortib bormoqda. Xo'sh, iqtisod bizga nega kerak? Ushbu savol barchani qiziqtirishi tabiiydir. Javobi oddiy, «Iqtisodni bilmagan mazmunli hayot kechirilmaydi». Respublikamizdagi barcha tengdoshlarimga, taqdirimiz o'z qo'limizda, shunday ekan, nurli kelajak sari intilaylik, degim keladi.

Feruz JO'RAYEV, Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 20-iqtidorli bolalar maktab-internatining 9-sinf o'quvchisi:

- «Tong yulduzi» gazetasida qator yillardan buyon berib borilayotgan «Iqtisod saboqlari» tanlovining shartlari bizni tinmay izlanishga chorlab kelmoqda. Ushbu gazetaga butun sinfimiz bilan obuna bo'lganmiz. Sevimli gazetamizda kelgusida yana ham qiziqarli tanlovlar e'lon qilinishini istardim.



Qosimbek HAYDARALIYEV, Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanidagi 30-ixtisoslashgan litsey-internatning 9-sinf o'quvchisi:

-«Iqtisod saboqlari» tanlovining yakunlovchi bosqichida qatnashayotganimdan quvonchim cheksiz. Ta'lim maskanimizdagi barcha do'stlarim menga oq yo'l tilashib, ustozlarimning ishonchini oqlashga harakat qilaman. Bir so'z bilan aytganimda, meni iqtisodchi qilayotgan «Tong yulduzi» gazetasiga, Umida opamlarga, tahririyat xodimlariga o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Kelajakda Ergashvoy Sarioqovdek sahovatli olim, chin odam bo'lishni orzu qilaman. Shu bois litsey-internatim tugatib, o'qishimni Iqtisodiyot universitetida davom ettirmoqchiman.

Karimaxon ABJAPAROVA, Andijon viloyati, Qorasuv shahridagi 19-ixtisoslashtirilgan maktab-internatning iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchisi:

-Men fan olamiga kirib kelgan «Iqtisodiy bilim asoslari» fanidan 1997-yildan buyon dars berib kelmoqdaman. Dastlabki yillarda bu berishda darslik ham, yo'q edi. Har bir tuzgan dastur asosida «Iqtisodiy bilim muallifi Ergashvoy Haydarovlar kitob dasturi amal gazetasi «Tong olimpiadasining oshirishda balki biz tanlovi sirtqi olimpiada darajasiga ko'tarildi. Unda iqtisod, matematika, fizika va kimyo fanlari bo'yicha bilimlar sinalladi. Olimpiada savollariga befarq bo'lmagan bilimdonlar kelgusi sonni albatta topib o'qing va savollarga javoblarni o'z gazetangiz sahifalariga to'ldirib, bizga jo'nating.

DIQQAT, DIQQAT!!!

Endi «Iqtisodiyotdan saboqlar» tanlovi sirtqi olimpiada darajasiga ko'tarildi. Unda iqtisod, matematika, fizika va kimyo fanlari bo'yicha bilimlar sinalladi. Olimpiada savollariga befarq bo'lmagan bilimdonlar kelgusi sonni albatta topib o'qing va savollarga javoblarni o'z gazetangiz sahifalariga to'ldirib, bizga jo'nating.



Sahifani Maftuna ESONOVA tayyorladi.

Mannon TOJI TIL - MILLATNING BORLIGI

Til - millatning borligi,
Tarixiga yorligi.
Kim qadriga yetmasa,
Budir uning xorligi.

Tilga qilsang e'tibor -
El tilida noming bor.
O'z tilingni yo'qotsang,
Senda yo'qdir iftixor.

Tilimizni asraylik,
Qalb to'rida saqlaylik.
O'rganib uni obdon,
Biyron bo'lib sayraylik.

Til - Allohdan hidoyat,
Bo'lgay so'zing inoyat.
Qalbi tosh kalomingdan,
Insofga kelsa shoyad.

Ko'zning mehr nurlari,
So'zning sehr durlari.
Sochilib tursin mudom -
Balqsin hayot gullari!



Kattalar bolalarga

DILIM

Barmoqlarim chaladi dutor,
Tuyg'ularim misli shalola.
Ohanglarning ajib sehridan,
Qad rostlaydi qalbmida nola.

Musiqaning oq qanotida,
Bolaligim men yod etarman.
Yana qo'msab olis qishlog'im,
Talpinaman, uchib ketarman.

O'sha yurtida, tog'lar ortida,
Parcha qalbm qolgandir mudroq.
Sog'inchga tin bersam gohida,
Qalbm sahro bo'ladi shu choq.

Ota yurtim unutsam hayhot,
Dilim muzdek bir tosh bo'ladi.
Shahnoz, bunday yuragingni ot,
Chin so'z, itga talash bo'ladi.

*Shahnoza NAZAROVA,
Jizzax viloyati, G'allaorol
tumani.*

Asomiddin ZIYOMAT ISHCHAN ARILAR

Oyim ekan ko'chatlar,
Bo'y cho'zib, shox otishdi.
Ko'rganlar havas bilan,
To'lqinlanib boqishdi.

Erta tongni olqishlab,
Ishga tushar arilar.
-Bolimizdan nahorga,
Yeyishsin deb qarilar.

Yozning uzun kunlari,
Mehnat qilib tolishmas.
Bardosh-u matonatda,
Insonlardan qolishmas.

Qo'shnimiz Yodgor xola,
Minnatdor arisidan.
Juda xursand gul ekan,
Qo'shnilar barisidan.



Safar oldidan

BIZ ITALIYAGA KETYAPMIZ

Sportga qiziqadigan barcha o'g'il-qizlarning orzusi bitta: u ham bo'lsa, ko'plab musobaqalarda chiniqib, dunyo shohsupasidan o'rin olish.

O'zbekiston Karate Milliy Federatsiyasi binosiga yetib borganimizda uning oldida bir necha sportchi bolalar nimalar haqidadir gaplashib turishardi.

-Salom bolalar.

-Assalomu alaykum.

-Sir bo'lmasa, nima haqida gaplashayotgandingiz?

-Biz yaqinda Italiya safariga ketyapmiz. Ana shu safarning maslahatini qilayotgandik-da,- deydi o'zini Boburjon Ismoilxonov deb tanishtirgan 3- sinf o'quvchisi. Uning o'rtog'i 9 yoshli Asror esa 9 ta medal sohibi ekanligi haqida faxrlanib gapirib berdi. O'ninchi medalini Italiyada qo'lga kiritish niyatida ekan.

-Italiyada bo'lib o'tadigan ushbu Jahon chempionatida bizning vakillarimiz yurtimizga yana ko'plab medallar shodasini olib qaytishadi, degan niyatdamiz, - deydi, O'zbekiston Karate Milliy federatsiyasining prezidenti, 6-Dan Qora belbog' sohibi Nurxon aka Nafasov.

Murabbiyning bu ezgu niyatlariga biz ham qo'shildik.

Xurshida BOYMIRZAYEVA.



Quyosh olamga nur sochib, Yerga o'z
yaqin yulduz bo'lib, 150 million
chiqqan nur
atrofida

Bu turfa olam

yo'ldoshi bitta - Oy,
ta. Quyosh son-
birgalikda Somon yo'li
atrofida sayyoralar
kabi osmon jismlari aylanadi.
sayyoralarining oralig'ida
joylashgan. Kometalardan Galley

kilometr gacha yaqinlashib keladi. Meteoritlarni "Uchar yulduzlar" deb ham atashadi, ular yonib, o'zidan nur sochadi, yonib ulgurmagan bo'laklari Yerga ham tushadi. Quyosh o'z o'qi atrofida 27 sutkada bir marta aylanib chiqadi. Yer o'z o'qi atrofida 24 soatda, Quyosh atrofida 365 kunda bir marta aylanib 930 million kilometrni bosib o'tadi. Yer shari o'z o'qi atrofida g'arbdan sharqqa tomon aylanadi. U harakat qilmaganda edi, Quyoshga qaragan tomoni qizib ketib, teskari tomoni muzlab, tirik organizm yashashi mumkin bo'lmay qolardi. Buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy Yerning shar shaklida ekanligini aniqlagan va dunyoda birinchi bo'lib globus yasagan. U Yer shari o'lchamlarini hisoblab chiqib, Amerika qit'asi mavjudligini yozib qoldirgan.

Anvar MADRAHIMOV.



Kelajak qanotlari


Respublikamizning turli burchaklaridan stol tennisi musobaqalarida qatnashish uchun poytaxtga kelgan sportsevar bolalar poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan "Umid" bolalar sport majmuasida uchrashdilar.

Ularni o'ziga shunchalik jalb qilgan sportning bu turi haqida batafsilroq ma'lumot olish niyatida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy, O'zbekiston terma jamoasining bosh murabbiyi Ikrom BURHONXO'JAYEV bilan suhbatlashdik:

-Yurtimizda sportning stol tennisi turiga Toshkent shahrida 1957- yilda ilk bor asos solingan. Bugungi kunda 12 mingdan ziyod yoshlarimiz sportning ushbu turi bilan jiddiy shug'ullanmoqdalar. Jahon o'yinlari chempionlari hamda Olimpiada qatnashchilari bo'lmish Said Burxonxo'jayeva va Manzura Inoyatova ana shunday umidli sportchilarimizdan. Bu tennischilarning qizlarimizning izdoshlari soni ham kundan-kunga o'sib bormoqda. Yaqinda Koreyada stol tennisi bo'yicha bo'lib o'tgan Xalqaro turnirda Malayziya, Tayland, Indoneziya, Vetnam, Yaponiya, Xitoy, Taypey, Singapur, Hindiston, Gonk-Kong davlatlaridan kelgan 25 jamoadagi 300 nafar bolalar va o'smirlar qatorida bizning o'zbek sportchilarimiz ham muvaffaqiyatli ishtirok etdilar. Hozirda terma jamoamiz safida 32 nafar sportchilarimiz bor. Ularning 5500 dan ziyodi qizlar va 6500 nafari o'g'il bolalarni tashkil etadi.

Bugungi musobaqa "Sog'lom avlod" kubogi uchun o'tkazilayotgan an'anaviy 2- Respublika bolalar turniridir. Bahslarda 1992-, hamda 1993- yillarda tug'ilgan o'g'il-qizlar kuch sinashadilar. Musobaqadan maqsadimiz esa terma jamoa safini kengaytirish va sportning bu turini yanada ommalashtirishdan iborat. Respublikamizning barcha viloyatlaridan kelgan o'smirlarning bari stol tennisining mohir ustalari hisoblanadilar. Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Toshkent va Buxoro viloyatlarining sportchilari esa Xalqaro va Osiyo chempionlari bo'lishga ulguradilar. Bugungi musobaqada ham g'oliblar aniqlandi. O'g'il bolalar o'rtasidagi kichik guruhda 1-o'rin xorazmlik Sarvar Rajabovga nasib qilgan bo'lsa, qizlar o'rtasidagi bellashuvda toshkentlik Nodira Burxonxo'jayeva g'olib deb topildi.

Ma'mura MADRAHIMOVA.



UUMID'DA YANA MUSOBAQA

Shu qutlug' Ramazon kunlarida o'tgan-ketgan ulug'lar beixtiyor yodimizga tushadi, ularning ruhini shod etish niyatida el-yurtga osh tortiladi: agar yodlovchining o'zi bechoradan ham bechoraroq bo'lsa, nima qiladi? Axir, tishining kirini so'rib yurgan odam bitini auksionga qo'ymaydi-ku! Hayriyat, o'zi boylarga hovuchini tutib kun ko'radigan g'ariblar uchun ham ijobat bo'ladigan ibodat bor - buning nomi mutolaa deb ataladi. Shu bois sahobai kiromlar ham kechalari ilm bilan, mutolaa bilan mashg'ul bo'lgan. Zero, ibodatning eng yaxshisi ilm olmoq, ilm o'rganmoq hisoblanadi, janob Payg'ambarimiz ham kerak bo'lsa Chinga borib ilm o'rganmoqni farz qilganlar.

Xo'sh, yuqoridagi daromad gaplarning G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasiga nima aloqasi bor? Bizning nazarimizda, to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lsa kerak. Chunki G'afur G'ulom adabiyotda katta maktab yaratgan adib, bu maktabda ta'lim olgan shogirdlar ham kam bo'lmagan. Biroq... G'afur G'ulomning safdoshi jasur yozuvchimiz

Abdulla Qahhor: "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas", degan edi. Afsuski, yovuz siyosat bosimi ostida ijod qilgan ulkan adiblarimiz ko'pincha "o'tin yorish" bilan mashg'ul bo'lganlar. Bu, bor gap, achchiq haqiqatdir.

Ishonmasangiz, "Shum bola"ni o'qib, keyin "Mening o'g'rigina bolam" yoki "Xasan kayfiy" hikoyalarini yana bir marta mutolaa qilsangiz, yer bilan osmoncha farqni ko'rasiz. Bu faqat qahramonlar yoshining katta-kichikligidan iborat bo'lmay, G'afur G'ulomning ijtimoiy hayotga isyoni ko'lami nechog'lik kengaygani bilan ham belgilanadi... Mayli, hozircha bu masalani chuqurlashtirmaylik, hozircha biz ulkan talant sohibining ruhini shod etmoqchimiz, bilib-bilmay qilgan gunohlari bo'lsa yaratgan egamdan maxfirat aylashini so'raymiz.

O'ylaymizki "Tong yulduzi" o'quvchilari quyidagi parchani mutolaa qilgach, davomini o'zi topib o'qiydi va mushohada qiladi, o'ylaydi, kuladi, zavqlanadi.

Chamanda gul

G'afur G'ULOM

(Qissadan parcha)

Sariboy bo'lis haligacha xo'jayinlarimning ichida eng Xudo urgan badbaxti, ziqnasi edi.

Uning oldiga bir ish bilan borsangiz, bo'lar-bo'lmas yerda "Innaykeyin?" deb so'raydigan odati bora edi. Ana shu "innaykeyin"ga javob topib bera olmasangiz onangizni Uchqo'rg'ondan ko'rasiz. Qamchi bilan yelkaga tushirib qolguvchi edi. Chunonchi, borsangiz-da, unga: "Qandil olma pishibdi", deb aytasangiz, u sizga "innaykeyin?" deb savol beradi. Siz albatta: "shu pishgan olmani terish kerak", deysiz. Yana Xudo qarg'agan "innaykeyin?" Xayr, "Sotish kerak", deysiz. Yana "Innaykeyin?" deb so'rab qoladi. Vaholanki, shu yerda gapning o'zi tamom. "Innaykeyin" degan savolga hech hojat yo'q. Ana shunaqa o'rinda javob topib bera olmaysiz-da, boydan kaltak yeysiz.

Sariboy Chuvalachidagi Yusuf kontor bilan qimor o'ynab, uning mevazorlari, ichki-tashqi qo'rg'onchasi, butun dov-dasgohining hammasini yutib olibdi. Yusuf kontorning bog'i, ayniqsa, uning bahavo shiyponi bizning xo'jayinga ma'qul tushib qolib, darrov o'sha yerdan bitta do'ndiqqina qirg'iz xotinni olib, bir borgancha o'n-o'n besh kunlab Kalasga qaytmaydigan bo'lib qoldi. Olmalar pishib, to'kilib tashlabdi. Xo'jayindan ruxsatsiz terishga hech kim botina olmaydi. Otlarga yem-hashak yo'q. Xizmatkorlar och, lekin boyning oldiga borishga hech kimning yuragi dov bermaydi. Har gapdan keyin beriladigan "Innaykeyin?" savolidan hamma qo'rqadi.

Bir kun kechqurun xizmatkorlar bilan o'tirib, qanday qilib boyni o'z joyiga chaqirib kelish to'g'risida maslahatlashdik, ham kim borishini o'ylashdik, nima deb chaqirib kelishni fikrlashdik. Toin-ki "Innaykeyin?" dardidan keyin boyni o'zining tinkasi quriydigan bo'lsin.

Chek menga chiqdi.

Erta bilan bir otga minib, boyni oldiga qarab yo'l soldim. Yo'l-yo'lakay ming xil xayollarga botib o'ylayman. Qanday qilib "innaykeyin"ga javob topish kerak? Yetib borib, otdan tushdim. Boy

shiyponi kalla go'sht bilan nonushta qilib o'tirgan ekan. Salom berib, sekingina poygaka da cho'kka tushib o'tirdim.

-Xo'sh?!

-Shunday, o'zim, sizni sog'inib, bir ko'rib kelay deb kelgan edim.

-Yaxshi-yaxshi, barakalla, juda ham quruq kelmagandirsan, biror ishing bordir. Xo'sh, nimaga kelding?

Shu paytda

boyga xizmatkor yurishda qo'ygan shartim esimga tushib qoldi.

"Shart qilgan yolg'onni endi gapirmasang, qachon gapirasan", dedim-da, gap boshladim.

-Anovu, haligi dandon sopli pichog'ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim.

Ana shu so'zdan keyin menga "Innaykeyin?" savoli yog'ila boshladi.

-Xo'sh, innaykeyin, qanday qilib sindi? Ro'zg'orda mening pichog'imdan boshqa pichog' qurib ketgan ekanmi?

-Tozi itingizning terisini shilayotgan edik, suyakka tegib sinib qoldi.

-Iyya?! - dedi boy. - Tozining terisini mening dandon sopli pichog'imda shilasnlarmi, o'zing ayt-chi, nimaga shildilaring?

-Shoshib qoldik-da, o'lib qolgandan keyin bekor ketmasin deb terisini shilib oldik.

-Nima qilib o'ldi?

-Xarom o'lgan otning go'shtidan ko'p yeb qo'ygan ekan, bo'kib o'ldi.

-Xarom o'lgan ot go'shti qayoqda ekan?

-Ha, o'zimizning to'riq qashqaning go'shtini yeb o'ldi-da, begona ot emas.



SHUM BOLA

Boy alanglab qoldi.

-Hay, hay bola, og'zingga qarab gapir, to'riq qashqa o'ldi dedingmi? Xo'sh, to'riq qashqa nima qilib o'ldi?!

-Xomlik qilib o'ldi.

-Nimaga xomlik qiladi?

-Hech aravaga qo'shilmagan ekan, biz uni aravaga qo'shib suv tashigan edik, zo'riqib o'ldi.

-Nima deyapsan, haromi, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib mening birdan-bir boqib qo'ygan ulochi otim bilan suv tashiysanlarmi, padar lan'atilar?

-Ha, o't tushgandan keyin uning ulochiliga qarab o'tiradimi, duch kelganini qo'shib, ishqilib, bir chelak bo'lsa ham tashiy beradi-da!

Boyni chaynab turgan yaxna tilni yutishga ham madori qolmadi. Og'zidan olib qo'ydi-da, baqrayganicha menga tikilib:

-O'zing jinni-pinni bo'ldingmi? O't tushdi deganing nima deganing. Qayerga o't tushdi, nimaga tushadi?

-Sog'man, xo'jayin, o't avvalo og'ilxonaga tushdi. Ot sho'rliklarning hammasi nobud bo'lib ketdi-da, xo'jayin.

-Iya, og'ilxonada o't nima

qiladi?

-Mening ham fikrim shu, boshqa xizmatkorlaringizning ham fikri shu-ki, o't ombordan o'tgan bo'lsa kerak.

-Axir omborda o't chiqadigan narsa yo'q-ku! Bug'doy bor edi, to'g'ri, guruch bor edi, yog' bor edi, gazmol bor edi, to'g'ri, shulardan o't chiqadimi?

-Berdisini aytguncha shoshmang, xo'jayin, omborga qo'rg'ondan o'tibdi. Og'ilxonaga ombordan o'tgan bo'lsa kerak. Shunaqa qilib bir biriga tutashib ketgan-da.

-Iyya, hali qo'rg'on ham yondi degin?!

-Qo'rg'on ham yondi, ombor ham yondi, og'ilxona ham yondi, otlar ham o'ldi, itingiz ham o'ldi, pichog'ingiz sindi.

-Qo'rg'onga qayerdan o't

ketibdi?

-Shamdan tutashib ketibdi, shamdan.

-Hoy, o'zing jinni bo'lib qolibsang, o'g'lim. Axir, mening dargohimda shamga kun goldimi? Qator-qator lampalar, o'zim Toshkentdan atay sotib olib kelgan qirqinchi fanorlar qayoqqa ketibdi, kerosinni bo'lsa bir yilga yetarligini bochka-bochka zapas qilib qo'ygan edim. Nimaga sham yoqasanlar?

-Xo'jayin, deyman, o'zingiz ham odamni juda xit qilib yuborar ekansiz-da?! Butun boshli o'likning arvohiga sham yoqmay, lampa yoqiladimi? Kelgan arvoh nimaning shu'lasi bilan o'ynashadi. Axir kosaga suv quyib, ustiga olma shoxi qo'yiladi. Kelgan arvoh avval shoxga qo'nib o'tiradi. Bir nafas damini rostlagandan keyin haligi shamning pipirab turgan shu'lasi bilan o'ynashadi.

Mening entak-tentak so'zlarimdan boy talmovsirab qoldi. Go'yo shu gaplarni eshitgisi kelmaganday, sekin qo'rqa-pisa so'radi:

-Kim o'ldi?

Shu yerda men yuzimga qalbaki qayg'ular chiqarib, ho'ngrab yig'lab yubordim.

-Kenjatoy o'g'lingiz Bo'riboyvachcha, terakka chiqib, chumchuq bolasini olaman deb, yiqilib tushib, bir marta "dada" dedi-yu, "g'iyq" etib jon berdi.

Bu gaplarimning keyingi jumllarini eshittimi-eshitmadimi, bilmayman, choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yordiyu soqolini yulib, dodlab yig'lamoqqa boshladi. Men ham qo'shib yig'lar edim. Bir nafas ayuhannos solib yig'lagandan keyin men to'xtadim, bosh ham to'xtadi. Boyning juda ham o'pkasini uzib yuborganimdan, endi uni yupatish uchun o'zimdanda gap to'qimoqchi edim.

-Xo'jayin, -dedim, - Xudo berardan qismasin, xafa bo'lmang, bordiyu o'g'lingiz o'lib, uyingizga o't tushgan bo'lsa, otlar o'lgan bo'lsa, it nobud bo'lgan bo'lsa, pichog' singan bo'lsa, hammasining o'rini bosadigan bitta xushxabar ham topib kelganman.

Boy g'iqillab turib so'radi:

-Xushxabaring qursin, padar la'nat, qanaqa xushxabar?

-O'rtancha qizingiz Adol opam dunyoga arziydigan bitta o'g'il tug'dilar.

-Iyya!- dedi boy ko'zlarining shoh soqqasi chiqquday. -Adol opang hali erga chiqmagan-ku?!

-Biz ham shunisiga hayronmizda, xo'jayin! Xudo beraman desa, erga chiqmasa ham berar ekan. Bolani ayting-a, bolani, nabirangizni ayting-a, xo'jayin.

Badal aravakashingiz bor-ku, quyib qo'yganday o'shaning o'zginasi.

Boy ortiq chidab turolmadi. Hushidan ketib yiqildi. Men ham qamchi o'rimidan

yeydigan kaltakni nasiya qilib jo'nab qoldim. Mendan biror soatlardan keyin, tulpor saman otda barlari osilib ketgan alpang-talpan, bir ko'zi yerda, bir ko'zi osmonda, egar qoshiga qamchi dastani tirab yig'lab, boy kirib keldi.

"Yana bir falokat yuz berib qolmasin", deb o'zimni chetga oldim. Boyning yig'lab kelishini uy ichidagilar eshitib, ular ham "bir balo bo'libdi shekilli", deb uydin yig'lab chiqi boshladilar. Bir-birlarini quchoqlab arosat boshlanib ketdi.

Yig'i tamom bo'lgandan keyin, bir birini anglashib, surishtira boshladilar. Keyin ma'lum bo'lishiga qaraganda, na ot, na it o'lgan, na qo'rg'onga o't tushgan, na pichog' singan. Bo'riboyvachcha bo'lsa so'lakayini oqizib o'zi chiqib qoldi. O'sha kuni men ko'rinmay yurdim. Ertasiga boy meni qidirib, chalpak qilib ko'tartirib keldi. Avval qurtakkina qilib yigirma qamchini bosh-ko'z aralash yedik. So'ngra so'radi:

-Hoy, itdan tuqqan, bu qilg'ing nimasi?

-Axir boshida bay qilishgan edik-ku, aylanay xo'jayin, har zamonda bir yolg'on gapiraman deb...

Nashrga Olima NABIYEVA tayyorladi.

MUSHTLASHISHDA TO'RTINCHI O'RIN

«Darsdan so'ng, cheksiz paxtaorlar qo'ynida sinfdoshlarim bilan kim o'zarga bellashib, kuniga 120 kilogrammdan paxta terardim. Terimda ko'p qizlardan o'zib ketayotganimdan g'ururlanibmi yoki ularning nigohlaridagi havasdan ruhlanibmi, sur'atni biron daqiga bo'lsa-da, bo'shashtirmaslikka intildim. Mehnat sururi bilan qo'log'imga o'rnashib qolgan o'sha sirli navolar ohangi biron daqiga bo'lsa-da, qalbimni tark etmaydi. Maktabimizning sport zali, sinf xonalari san'at yo'lidan borishimda birinchi sahnami edi», deydi hofiz akangiz, - muhabbat kuychisi Anvar SANAYEV.

CHIN O'RTOQ

Maktabda «a'lo» va «yaxshi» baholarga o'qiganman. Ayniqsa, adabiyot va musiqa darslariga qiziqardim. Sportning erkin kurash turi bilan muntazam ravishda shug'ullanardim.

Sinfimizda Erkin Xo'jayev degan sirdosh o'rtog'im bo'lib, u chiroyli rasmlar chizardi. Uning chizgan samolyoti xuddi jonlidek barchaning havasini keltirardi. Negaligini bilmadim-u, qancha urinmayin, mening samolyotim unikidek chizilmasdi. Do'stimning bu boradagi qobiliyatining ustunligidan unga mehrim baland edi.

KIM KUCHLI?

O'rtog'larim bilan o'zaro mushtlashib, kim kuchli ekanligini aniqlab olardik. Oramizda eng kuchlisi G'anisher bo'lib, uning oldiga tushadigani yo'q edi. Ikkinchi, uchinchi o'rindagi bolalar ham zo'r mushtlashishardi. «Men esa bu safda to'rtinchi o'rinda turardim». Ba'zan birinchi o'rin uchun bellashgim kelardi-yu, ammo barcha sinfdosh o'rtog'larim qatori G'anisherdan hayiqardim.

DOIRA ZARBLARI

Yoshligimdan doira chalishga qiziqardim. Bu borada amakim, taniqli san'atkor Umarjon Sanayev menga ustozlik qilganlar. Ularning yonlaridan bir qadam ham jilgim kelmasdi. Ustozimning talabchanligi bois o'zim mustaqil ravishda doirada kuylar chala boshladim. Bu cholg'u asbobi zarblarining o'ziga xos usullari bo'lib, uni mukammal o'rganish uchun albatta o'qishim lozim edi. Shu bois, Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 22- o'rta maktabning 7-sinfini tugatib, Hamza nomli musiqa bilim yurtiga hujjatlarimni topshirdim. Birinchi yili

Uchrashuv

o'qishga kirolmadim. Ruhimni tushirmasdan jiddiy tayyorgarlik ko'rganim bois, ikkinchi yili o'qishga qabul qilindim. San'at sohasida intilishning o'zi kamlik qiladi. Buning uchun kishida iqtidor ham bo'lishi lozim. Bilim yurtini tugatib, Madaniyat oliygohining zarbli urib chalinadigan cholg'u asboblari bo'limida tahsil oldim.

IZLANISH-YANGILIK YARATADI

Har bir san'atkorning o'ziga yarasha muxlisi bo'ladi. Ularning talabidan kelib chiqib qo'shiqlar ijro etishga intilaman. Yengil-yelpi, siyqasi chiqqan qo'shiqlar tomoshabinni zeriktiradi. Ijodimning asosiy qismi muhabbat mavzusidagi qo'shiqlardan iborat. She'rlarni o'zim tanlayman. Buyurtma qo'shiqlar ijro etmayman. Hofiz izlanishdan to'xtamasagina xalqning dilidan joy oladi. G'oliblikning eng og'irsinovi

haqgo'ylikdir. 500-1000 kishi san'atimdan bahramand bo'lishga kelsa-yu, ularni fonogramma bilan aldab o'tirishni vijdonim qabul qilmaydi. Shu bois hamisha jonli ovozda kuylayman. Faqatgina musiqada elekt quvvatini ishlatamiz.

ODDIYLIKDA HIKMAT KO'P

Otam Ismat aka yozuvchi shoir, tarix fanlari kandidati. Onam Habiba opa esa o'qituvchi. Ular orasidagi o'zaro ahillik biz farzandlar uchun ibratli maktab vazifasini o'tardi. Oddiylik, kamtarinlik hamisha insonni yuksaklikka yetaklaydi. Endi-endi doira chalayotgan paytlarimda mashhur hofizlarning tumanimizdagi konsertlariga borib, qaniydi meni ham sahnaga chiqarishsa-yu, ularga jo'r bo'lsam, deya orzu qilardim. Shu bois muxlislarim orasida kimning shunday orzusi bo'lsa, hech qachon e'tiborimdan chetda

qolmaydi. Ishtixon tibbiyot bilim yurtini tugatgan Farhodjon ismli yigit qo'linga xat tutqazdi. Ochib o'qisam, siz bilan birga kuylash niyatim bor, deb yozibdi. Uni sahnaga taklif qildim. Galma-gal qo'shiq ijro etdik. Yaxshigina ovozi bor ekan, hatto ijro ikki kishi tomonidan bo'layotgani ham sezilmadi.

Quvonganimdan qo'llarimni yelkasiga tashlab bag'rimga bosdim. Demak, san'at olamiga yana bitta san'atkor kirib kelmoqda.

Ha, shirali ovozi bilan faqatgina muxlislar ko'nglidan joy olib qolmay, balki yangi iste'dodlarni ham kashf etib borayotgan hofiz akangiz siz bolajonlarga juda mehribon. Ularning tilagi «a'lo» va «yaxshi» baholarga o'qing, chiroyli suratlar chizing, mayli, biroz mushtlashib, kuch sinashib ham turing, ammo vijdonli, samimiy bo'lishga intiling.

Jamila ERDONOVA
yozib oldi.

TONG
yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 13857
Buyurtma N: J 1736

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin
SHAYADGAROV.
Navbatchi:
Ma'mura
MADRAHIMOVA.

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10
144-63-08

Tel/ faks:
(99871) 144-24-45